

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, IV-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH .....	10
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
<b>Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
<b>Ma'rupova Gulnoz</b>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
<b>Muratov Abdulaziz Uktamovich</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
<b>Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar</b>	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
<b>Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA .....	38
<b>Raximov Alisher Ibragimovich</b>	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI .....	45
<b>BekmurodovAbbos Amiriddinovich</b>	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
<b>Makhambetova Uringul Reimbaevna</b>	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH .....	55
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI .....	62
<b>Ergasheva Ma'mura Gayratovna</b>	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna</b>	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH .....	74
<b>Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir</b>	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES .....	82
<b>Farida Nishanova</b>	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR .....	87
<b>Abdullayev Axror Jaxbarovich</b>	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI .....	92
<b>Iskandar Yunusov</b>	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
<b>Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich</b>	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	108
<b>Rahimov Qodir Ergashevich</b>	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	115
<b>Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович</b>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI .....	124
<b>Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
<b>Raxmonova Nigina Anvarovna</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA .....	132
<b>Farida Nishanova</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI .....	137
<b>Inobatov Abror Boshlarovich</b>	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
<b>Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi</b>	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS») .....	151
<b>Мусаева Шоира Азимовна</b>	
О'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI .....	161
<b>Djumayev Zayniddin Axmedovich</b>	
О'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLIL.....	166
<b>Yadgarova Nigora Rixsulla qizi</b>	



# O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI

**Yadgarova Nigora Rixsulla qizi**

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tayanch doktranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatida (TIF) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi va o'rni statistik ko'rsatkichlar hamda qiyosiy jadvallar yordamida tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi kichik biznesning tashqi savdo aylanmasidagi o'sish sur'atlarini tizimli baholash va tarkibiy o'zgarishlarni aniqlashdan iborat. Maqolada muallifning statistik guruhlash va dinamik qatorlar tahliliga asoslangan shaxsiy yondashuvlari bayon etilgan. Ilmiy yangilik sifatida TIFda kichik biznes subyektlari eksport va import faolligining o'zaro mutanosibligi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, sohadagi nomutanosibliklarni bartaraf etish yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Xulosalar mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport salohiyati, import, statistik tahlil, qiyosiy jadval, dinamik qatorlar, o'sish sur'ati.

**Abstract.** This article analyzes the role and share of small business and private entrepreneurship subjects in the foreign economic activity (FEA) of the Republic of Uzbekistan using statistical indicators and comparative tables. The purpose of the study is a systematic assessment of growth rates and identification of structural changes of small business in foreign trade turnover. The article outlines the author's personal approaches based on statistical grouping and analysis of dynamic series. As a scientific novelty, the interrelation of export and import activity of small business in FEA is analyzed on the basis of statistical data, and directions for eliminating imbalances in the field are developed. The findings serve to increase the export potential of the country.

**Keywords:** small business, foreign economic activity, export potential, import, statistical analysis, comparative table, dynamic series, growth rate.

**Аннотация.** В данной статье на основе статистических показателей и сравнительных таблиц анализируется роль и доля субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства во внешнеэкономической деятельности (ВЭД) Республики Узбекистан. Целью исследования является системная оценка темпов роста и выявление структурных изменений малого бизнеса во внешнеторговом обороте. В статье изложены личные подходы автора, основанные на статистической группировке и анализе динамических рядов. В качестве научной новизны на основе статистических данных проанализирована взаимосвязь экспортной и импортной активности малого бизнеса в ВЭД, разработаны направления по устранению диспропорций в сфере. Выводы служат повышению экспортного потенциала страны.

**Ключевые слова:** малый бизнес, внешнеэкономическая деятельность, экспортный потенциал, импорт, статистический анализ, сравнительная таблица, динамические ряды, темп роста.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va integratsiya jarayonlarining jadallashishi sharoitida har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi bosh omillardan biriga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rolini tubdan oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1; 12-14-b.].

Kichik biznes subyektlari o'zining moslashuvchanligi, innovatsiyalarga moyilligi va bozor konyunkturasi o'zgarishlariga tezkor munosabat bildirish xususiyati bilan milliy iqtisodiyotning lokomotivi hisoblanadi. Milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun xalqaro standartlarni joriy etish va sifat menejmentini yo'lga qo'yish bugungi kunda davr talabidir [2; 2662-2664-b.]. Biroq bugungi kunda mamlakatimiz yalpi



ichki mahsulotida (YIM) kichik biznesning ulushi yuqori bo'lishiga qaramay, uning respublika umumiy eksport hajmidagi ulushi hali ham yetarli darajada emas. Bu esa milliy iqtisodiyotning TIFda kichik biznes imkoniyatlaridan to'liq foydalanmayotganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati va unda ishtirok etayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari olingan.

Tadqiqotning predmeti esa TIFda kichik biznes ulushi va hajmini oshirish tendensiyalarini belgilovchi statistik qonuniyatlar, miqdoriy o'zgarishlar va ularni jadvallar yordamida baholash usullaridir.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston TIFda kichik biznes o'rnini tubdan oshirish yo'nalishlarini statistik usullar yordamida tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda uning rivojlanish tendensiyalarini dinamik ko'rsatkichlar orqali baholashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- TIFda kichik biznes o'rnini baholashga oid nazariy-uslubiy yondashuvlarni o'rganish;
- O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining dinamikasini statistik tahlil qilish;
- Kichik biznes eksport va import faolligiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi tarkibiy proporsiyalarni jadval usulida o'rganish;
- Sohaga oid to'siq va muammolarni tizimlashtirish hamda eksport hajmini oshirish bo'yicha statistik tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni, ularning eksport salohiyatini rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishga ta'siri masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan P. Krugman va M. Obstfeld o'zlarining xalqaro iqtisodiyotga oid fundamental ishlarida kichik va o'rta korxonalarining tashqi bozordagi raqobatbardoshlik omillarini qiyosiy ustunliklar nuqtayi nazaridan yoritib berganlar [3; 45-48-b.]. Shuningdek, T. Beck va A. Demircüç-Kunt o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik korxonalarining tashqi savdoga integratsiyalashuvidagi moliyaviy va institutsional to'siqlarni statistik tahlil qilganlar [4; 2933-2935-b.].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan A.Yu. Yudanov kichik biznes korxonalarining tashqi iqtisodiy muhitga moslashish mexanizmlari va ularning diversifikatsiyalashuv darajasini statistik ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilgan [5; 89-92-b.]. B.A. Reisberg esa davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy infratuzilmani shakllantirishdagi o'rniga urg'u bergan [6; 112-115-b.].

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan akademik S.S. G'ulomov iqtisodiy jarayonlarni tizimli modellashtirish va ma'lumotlarni guruhlash bo'yicha keng tadqiqotlar olib borgan [7; 56-60-b.]. N.M. Maxmudov o'z ilmiy ishlarida O'zbekiston milliy iqtisodiyotida kichik biznesning ulushini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va eksport salohiyatini statistik jihatdan baholashni tadqiq etgan [8; 47-50-b.]. A.V. Vaxabov xalqaro iqtisodiy munosabatlar globallashuvining milliy bozorlarga ta'sirini o'rgangan bo'lsa [9; 78-82-b.], Sh.Sh. Shodmonov bozor transformatsiyasi sharoitida tadbirkorlik subyektlarining harakat yo'nalishlarini tahlil qilgan [10; 104-108-b.].

Shuningdek, M.S. Martinez Peria bank tizimi orqali kichik biznes subyektlarining eksport dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini statistik baholagan [11; 12-15-b.]. M.E. Porter milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshlik ustunliklarini shakllantirishda kichik tarmoq klasterlarining ahamiyatini ochib bergan [12; 210-215-b.]. Jahon banki hisobotlarida ham O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining eksportga yo'naltirilganligini oshirish bo'yicha bir qator institutsional tavsiyalar berilgan [13; 34-38-b.]. N.R. Yadgarova o'zining dastlabki tadqiqotlarida tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarini dinamik qatorlar orqali baholashning uslubiy jihatlariga to'xtalib o'tgan [14; 20-22-b.]. K. Schwab esa xalqaro miqyosda raqobatbardoshlik hisobotlarini shakllantirishda kichik korxonalar ulushining dinamikasini solishtirgan [15; 67-70-b.].

Biroq, O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi transformatsiya sharoitida kichik biznes subyektlarining TIFdagi faolligini aynan dinamik qatorlar va tizimli statistik jadvallar yordamida kompleks tahlil qilish masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etmoqda. Ushbu maqolaning o'ziga xosligi va fundamental farqi ham aynan TIF ko'rsatkichlarini rasmiy statistik ma'lumotlar bilan qiyoslagan holda tizimli ochib berilganligidadir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

- Tadqiqot jarayonida statistik tahlilning quyidagi usullaridan foydalanildi:
- Statistik guruhlash usuli: Kichik biznes ko'rsatkichlarini yillar va yo'nalishlar (eksport, import, ulushlar) bo'yicha tizimlashtirish.

- Qiyosiy taqqoslash usuli: Kichik biznesning eksportdagi faolligi bilan importdagi ulushi o'rtasidagi salbiy va ijobiy siljishlarni aniqlash.
- Dinamik qatorlar tahlili: Bir necha yillar davomida ko'rsatkichlarning mutlaq va nisbiy o'sish, pasayish sur'atlarini hisoblash va solishtirish.
- Ushbu usullar yordamida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy yillik hisobotlari va to'plamlari atroflicha tahlil qilindi [16; 45-48-b.] hamda yakuniy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda kichik biznes subyektlarining mamlakat ichki iqtisodiyotidagi ulushi barqaror yuqori bo'lib kelmoqda (YIMda 50 foizdan yuqori). Biroq ushbu subyektlarning tashqi savdo aylanmasidan joy olish dinamikasi turlicha xarakterga ega.

Quyidagi **1-jadvalda** O'zbekiston Respublikasi TIFda kichik biznes subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi qiyosiy ko'rinishda keltirilgan.

### 1-jadval. O'zbekiston TIFda kichik biznes ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025-yillar) Tekshiruv natijasi:

Yillar	Umumiy eksport hajmi, mln. AQSh doll.	Kichik biznes eksporti, mln. AQSh doll.	Kichik biznesning eksportdagi ulushi, %	Kichik biznes importi, mln. AQSh doll.	Kichik biznesning importdagi ulushi, %
2020	15127.7	4084.5	27.0	9734.2	48.4
2021	16610.9	4518.2	27.2	11450.5	45.6
2022	19309.2	5116.9	26.5	14210.8	47.1
2023	24426.2	5422.6	22.2	16980.4	49.2
2024	25612.0	5980.5	23.3	18540.2	51.5
2025	27110.4	6750.2	24.9	19910.6	52.8

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tizimlashtirilgan [16; 50-b.].

**1-jadval ma'lumotlaridan** ko'rinib turibdiki, kichik biznes subyektlarining eksport hajmi mutlaq miqdorda 2020-yildagi 4084.5 mln. dollardan 2025-yilga kelib 6750.2 mln. dollargacha sezilarli darajada oshgan. Biroq mamlakat umumiy eksport hajmining o'sish sur'atlari juda yuqori bo'lganligi sababli, kichik biznesning umumiy eksportdagi ulushi 27.0 % dan 24.9 % gacha biroz pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Aksincha, import sohasida kichik biznes ulushi barqaror ravishda o'sib borib, 2025-yilda 52.8 % ni tashkil etgan. Bu holat kichik biznes subyektlari asosan tayyor mahsulotlar, xomashyo va texnologiyalarni import qiluvchi subyektlar sifatida faoliyat yuritayotganini, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishda esa ularning salohiyati hali to'liq bozor talablari darajasida emasligini isbotlaydi.

Kichik biznes faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish uchun hududlar kesimidagi statistik holatni ham tahlil qilish lozim. **2-jadvalda** mamlakat hududlari bo'yicha kichik biznesning eksportdagi ulushi aks ettirilgan.

### 2-jadval. Hududlar kesimida kichik biznesning eksportdagi ulushi (foizda)

Hududlar	2023 yil	2024 yil	2025 yil	Tendensiya (O'zgarish)
Toshkent shahri	38.4	40.1	42.5	O'sish
Andijon viloyati	25.2	24.8	26.0	Barqaror
Samarqand viloyati	31.0	33.5	35.2	O'sish
Farg'ona viloyati	29.5	30.2	31.8	O'sish
Buxoro viloyati	22.1	21.5	23.0	Biroz o'sish
Boshqa hududlar	18.4	19.0	20.1	Sezilarli emas

2-jadval tahlilidan ma'lum bo'ladiki, TIFda kichik biznes faolligi bo'yicha Toshkent shahri, Samarqand va Farg'ona viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Bu ushbu hududlarda infratuzilmaning rivojlanganligi va logistika imkoniyatlarining qulayligi bilan bog'liq. Qolgan hududlarda esa ko'rsatkichlar nisbatan past darajada qolmoqda.

Statistik tahlillar natijasida sohada quyidagi tizimli muammolar va to'siqlar aniqlandi:

Moliyaviy resurslar va eksportni kreditlash cheklanganligi: Kichik korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishi



va xalqaro sertifikatlarni sotib olishi uchun uzoq muddatli hamda arzon kredit resurslarining yetishmasligi [4; 2938-b.].

Logistika infratuzilmasining murakkabligi: Transport xarajatlarining yuqoriligi kichik biznes ishlab chiqargan mahsulotlar tannarxini oshirib, ularning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini pasaytiradi [12; 218-b.].

Axborot va marketing kamchiliklari: Hududlardagi kichik tadbirkorlarning xorijiy bozorlar kon'yunkturasi, u yerdagi ehtiyojlar, bojxona to'siqlari va standartlar haqida tayyor statistik bazaga va yetarli ma'lumotga ega emasligi [13; 41-b.].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy va dinamik statistik tahlillar asosida O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida kichik biznes o'rnini va ulushini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

Eksport yo'nalishidagi tarkibiy nomutanosiblikni kamaytirish: Kichik biznes subyektlarining importga qaramligini kamaytirish uchun mahsulotlarni mahalliyashtirish dasturlarini hududlarda kichik korxonalar darajasigacha tushirish lozim [8; 52-b.].

Hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish: 2-jadvalda ko'ringanidek, eksport ulushi past bo'lgan chekka hududlarda maxsus kichik sanoat zonalari va eksport kooperativlarini tashkil etish, ularga infratuzilma bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratish zarur.

"Yagona darcha" va raqamli axborot xizmatlari ko'lamini kengaytirish: Tashqi bozorlar haqidagi barcha statistik va marketing ma'lumotlarini o'z ichiga oluvchi bepul raqamli platformalar yaratish orqali kichik tadbirkorlarning axborot ta'minotini yaxshilash lozim [7; 62-b.].

Xalqaro standartlashtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Kichik biznes mahsulotlarining chet ellarda tan olinadigan xalqaro sertifikatlar olishi bilan bog'liq xarajatlarini davlat jamg'armalari hisobidan qisman qoplab berish amaliyotini kuchaytirish lozim [2; 2668-b.].

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Akhtar, N., Syakir Ishak, M. I., Bhawani, S. A., & Umar, K. (2021). Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review. *Water*, 13(19), 2660-2670.
3. Krugman, P. R., & Obstfeld, M. (2018). *International Economics: Theory and Policy* (11th ed.). Pearson.
4. Beck, T., & Demircüç-Kunt, A. (2006). Small and medium-size enterprises: Access to finance as a growth constraint. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2931-2943.
5. Yudanov, A. Yu. (2018). *Konkurenciya: teoriya i praktika*. Moskva: Knorus.
6. Reisberg, B. A. (2019). *Gosudarstvennoe regulirovanie ekonomiki*. Moskva: Infra-M.
7. G'ulomov, S. S. (2020). *Ekonometrika va statistik modellashtirish*. Toshkent: Sharq.
8. Maxmudov, N. M. (2021). Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (3), 45-56.
9. Vaxabov, A. V., & Xajibakiyev, Sh. X. (2019). *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. Toshkent: Moliya.
10. Shodmonov, Sh. Sh., & G'afurov, U. V. (2022). *Iqtisodiyot nazariyasi*. Toshkent: Science.
11. Martinez Peria, M. S. (2014). Bank financing for SMEs: Evidence across countries and bank types. *World Bank Policy Research Working Paper*, (7020).
12. Porter, M. E. (2008). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
13. World Bank. (2023). *Uzbekistan Economic Monitor: Promoting SME Export Competitiveness*. Washington, DC: World Bank.
14. Yadgarova, N. R. (2024). O'zbekiston TIFda kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlarini trend modellar orqali baholash. *Statistika va tahlil jurnali*, 2(4), 18-25.
15. Schwab, K. (2020). *The Global Competitiveness Report 2020*. Geneva: World Economic Forum.
16. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2025). *O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosi statistik to'plami*. Toshkent.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)